

G‘O‘ZADA KO’SAK QURTIGA QARSHI KIMYOVIY PREPARATLARNING SAMARADORLIGI

Shuxrat Abduraxmonov

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti assistenti.

Pardaeva Kamola

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi.

Annotatsiya. G‘o‘zada ko‘sak qurtiga qarshi kimyoviy vositalarning samaradorligi. Ushbu maqolada ko‘sak qurtiga qarshi dori vositalarini sinab ko‘rish bo‘yicha dala tajribasi natijalari keltirilgan.

Аннотация. Эффективность химических препаратов против хлопковой совки на хлопчатнике. В этой статье приведены результаты полевой опыта по испытанию препаратов против хлопковой совки.

Annotation: The affectiveness of chemical means against bollworms in cotton. This article presents the results of a field experiment on testing bollworm drugs .

G‘o‘za tunlami (*Heliothis armigera* Hb.). Yer kurrasining barcha qismlarida mo‘tadil va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan. O‘rtal Osiyoda g‘o‘za tunlami xamma joyda uchraydi. Biroq, uning soni va keltiradigan zarari turli tuproq- iqlim mintaqalarida turlichadir. Surxondaryo, Farg‘ona va Andijon viloyatlarining ko‘p qismi doimo zararlanib turadigan mintqa xisoblanadi. Bir qator irrigatsiya inshootlari ishga tushirilgandan keyin bu zararkunanda Buxoro viloyatida, Sirdaryo viloyatining janubiy-sharqiy mintaqasida, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida xam ancha ko‘paya boshladi.[2].

G‘o‘za tunlami har yili kuchli uchrayvermaydi, ammo ayrim yillari juda ko‘payib g‘o‘za va boshqa ekinlarga katta zarar keltiradi. Xuddi shunday o‘tgan 2022 yil mavsumida Surxondaryo viloyati sharoitida bu zararkunanda soni ko‘p bo‘ldi. Ayniqsa Angor, Denov, Sho‘rchi tumanlarining ayrim g‘o‘za maydonlarida bir nechcha martalab kimyoviy kurash tadbirlarini o‘tkazishga to‘g‘ri keldi. Shunday ekan bu zararkunandaga qarshi yuqori samarali kimyoviy vositalarni aniqlab, ularni qo‘llashning eng maqbul muddat va meyorlarini belgilab berish ahamiyatli masalalardan hisoblanadi. Shularni e’tiborga olib, 2022 yilda kimyoviy vositalarning samarasini o‘rganish maqsadida tajribalar o‘tkazdik.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar Surxondaryo viloyati Angor tumani Xomkon hududidagi fermer xo‘jaliklari g‘o‘za maydonlarida olib borildi. Kimyoviy ishlovlar motorli osma qo‘l purkagichi yordamida bajarildi. Tajribalar Sh. T. Xo‘jaev (2004) tahriri ostida chop etilgan uslubiy ko‘rsatmalar asosida bajarildi. Pestitsid samarasi- biologik hamda texnik samaradorlikni zararkunanda ob’ektining tabiiy rivojlanishini nazarda tutadigan Abbot [3] formulasi yordamida hisoblandi.

Natijalar. Tajribalar 2023 yil 24 iyul sanasida o‘tkazildi. Bunda turli kimyoviy sinf va turli ta’sir mexanizmiga ega preparatlar nazorat (dorisiz) varianti bilan birga 5 ta variantda sinovdan o‘tkazildi. Qaytariqlar soni 3 ta bo‘ldi. Hisob- kitob ishlovdan oldin va ishlovdan keyin 14 kun davomida o‘tkazildi. Olingan natjalarga ko‘ra sinovdagi har uchala preparat

qoniqarli samara ko'rsatgan bo'lsada, eng yuqori va davomli natija emamatch insektitsidida kuzatildi. Bu variantimizda ishlovdan so'ng 3 nchi kunda samara 89,3 % bo'lgan bo'lsa, 14 nchi kunda bu ko'rsatkich 96,1 % ga teng bo'ldi (jadval). Chunki tarkibida lyufenuron nomli gormonal ta'sir etuvchi faol moddaning bo'lishi samaraning uzoq davomiyligini ta'minlaydi.

Insektitsidlarning karadrinaga qarshi biologik samaradorligi

Dala tajribasi, Surxondaryo vil., Angor tum., 24.07.2023y.

| Variantlar | Ta'sir etuvchi moddasi | Dori sarfi, kg.l/ ga | Samaradorlik, % kunlar bo'yicha | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|-------------------------|------------------------------------|------|------|
| | | | 3 | 7 | 14 |
| Emamatch, 15% s.d.g. | Enamektin benzoat + lyufenuron | 0,2 | 89,3 | 93,7 | 96,1 |
| Avaunt, 15% s.d.g. | indoksakarb | 0,4 | 84,9 | 93,8 | 91,2 |
| Karache, 10 % em.k. (andoza) | lyambdatsigalotrin | 0,25 | 76,2 | 83,0 | 62,5 |
| Nazorat(dorisiz) | - | - | - | - | - |

Xulosa. G'o'za tunlami kuchli xuruj qilib, kimyoviy ishlov o'tkazishga hojat bo'lgan yillarda tarkibida emamektin benzoat yoki indoksakarb ta'sir etuvchi moddalari bo'lgan preparatlardan biri bilan kurashilsa 90,0 % dan yuqori ya'ni qoniqarli samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Методические указания по испытанию инсектицидов, акаритцидов, БАВ и фунгитцидов /Отв.ред. Ходжаев Ш.Т./ - Ташкент: «КО-ХИ-НУР»МЧЖ, 2004. – 103 с. (узб.).
2. Xo'jaev Sh.T.Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: “Navro‘z”, 2013. 113 b.
3. Abbot W. S. A method of computing the effectiveness of an insecticide|| J. Econ. Entomol. -1925. V. 18. №3. P. 200-265.
4. Abduraxmonov, S. M., Botirov, S. A. O. G. L., & Xo'Jaxonov, A. N. O. G. L. (2023). INGICHKA TOLALI G 'O 'ZA NAVLARIDA O 'SIMLIKXO 'R QANDALALARING ZARARLILIK DARAJASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 442-445.
5. Ahmad o'g'li, B. S., Baxtiyor, Q., & Bahodir o'g'li, E. J. (2023). Kuzgi tunlam va unga qarshi kimyoviy pestidsitlarning samaradorligi. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 56-58.